

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**QODIROV JOBIR RO‘ZIMAMATOVICH**

**O‘RIKLARNI QURITISH UCHUN MO‘LJALLANGAN TABIIY  
KONVEKSIYA VA HAVO KOLLEKTORLI BILVOSITA QUYOSH  
QURITGICH QURILMASI**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Qodirov Jobir Ro'zimamatovich**

О'riklarni quritish uchun mo'ljallangan tabiiy konveksiya va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich qurilmasi ..... 3

**Кодиров Жобир Рузимамамович**

Косвенная солнечная сушильная установка с естественной конвекцией и воздушным коллектором для сушки абрикосов..... 23

**Kodirov Jobir Ruzimamtovich**

Indirect solar dryer with natural convection and air collector for drying apricots..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 47

**QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**QODIROV JOBIR RO‘ZIMAMATOVICH**

**O‘RIKLARNI QURITISH UCHUN MO‘LJALLANGAN TABIIY  
KONVEKSIYA VA HAVO KOLLEKTORLI BILVOSITA QUYOSH  
QURITGICH QURILMASI**

**05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/T1154 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Iskandarov Zafar Samandarovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Fayziyev To'lqin Amirovich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Qarshi muhandislik-iqtisodiyoti instituti konferensiyalar zali. Tel.: (99875) 224-02-89; faks: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( №\_\_\_ - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (99875) 224-02-89; faks: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi №\_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**G'.N. Uzoqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., professor

**X.A. Davlonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, texnika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**B. Urishev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritish jarayonlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, quyosh quritgich qurilmalari asosida energiya resurslarini tejash va aholini sifatli quritilgan mahsulotlar bilan ta‘minlash muhim yo‘nalishlar etib belgilangan. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritish dinamikasi bo‘yicha olingan ma‘lumotlarga ko‘ra 1 kg quritilgan mahsulot olish uchun 4...11 kg namlikni chiqarib yuborish zarur, bunda energiyaning solishtirma sarfi 2,7...7,4 *kVt* soatni tashkil etadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritish uchun sarflanadigan yoqilg‘i resurslari qishloq xo‘jalik sektoridagi yoqilg‘i balansining 20% ni egallaydi<sup>1</sup>. Shu sababli, dunyoda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritish qurilmalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish asosida energiya va resurs tejash hamda energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan quyosh quritgichlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda qayta tiklanadigan energiya manbalari asosida ishlovchi bilvosita quyosh quritgichlarining konstruksiyalarini takomillashtirish, ish unumdorligini oshirish hamda konstruktiv parametrlarini optimallashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, bilvosita quyosh quritgichlarining maqbul konstruktiv parametrlarini aniqlash, qurilmadagi konvektiv issiqlik almashinuv jarayonlarini modellashtirish va quyosh quritgichining energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu sababli, tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichlarini takomillashtirish va ularning asosiy issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda aholini ishonchli, sifatli va arzon quritilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlash maqsadida energiya sarfi kamayishini ta‘minlovchi yangi zamonaviy energiya samarador quyosh quritgichlarini ishlab chiqish ishlari amalga oshirilib muayyan natijalarga erishilmoqda. 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida “...energiya resurslari iste‘molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish...”<sup>2</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichlarini takomillashtirish va joriy qilish dolzarb ilmiy-texnik masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish va qayta tiklanuvchi

---

<sup>1</sup> <https://uza.uz/ru/posts/sushka-selskokhozyaystvennykh-produktov-s-ispolzovaniem-soln-10-11-2015>

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori

energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>3</sup> va 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>4</sup> gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa zamonaviy ilg'or texnologiyalar va qurilmalarni yaratish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgich qurilmalarini takomillashtirish va konstruktiv elementlarining o'lchamlari va issiqlik-texnik parametrlarini optimallashtirish, shu asosda energiya samaradorligi yuqori bo'lgan quyosh quritgich qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha jahonning ko'plab mamlakatlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu sohada xorijlik olimlar N.M. Maundu, K.S. Kiptu, B.K. Rudenya, O. Adjike, C.P. Phadke, P.V. Uoker, A.S. Lupashko, G. K. Dikumar, A.N.Ostrikov, A.L. Kuznetsov, A. Ashurov tomonlaridan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Respublikamizda quyosh energiyasi asosida ishlaydigan quyosh quritgich qurilmalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar G.Y. Umarov, R.A. Zaxidov, R.R. Avezov, B.E. Xayriddinov, Z.S. Iskandarov, Z.T. Toirov, I.I. Raxmatov, X. Nuriddinov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Tabiiy konveksiyali bilvosta quyosh quritgichlarining samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichlarini takomillashtirish, kombinatsiyalashgan quyosh quritgich-saqlagich qurilmasini ishlab chiqish, havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich tizimida sodir bo'ladigan konvektiv issiqlik almashinuv jarayonlarini modellashtirish hamda energiya samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga asosan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Qayta tiklanadigan energiyaga asoslangan energoqurilmalar" mavzusidagi №F.01.2017 fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4779-sonli qarori

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-sonli qarori

**Tadqiqotning maqsadi** o'riklarni quritishga mo'ljallangan tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich qurilmasini takomillashtirish va energetik samaradorligini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritishda issiqlik va massa almashinuv jarayonlarini hamda mavjud quyosh quritgichlarining konstruksiyalarini tahlil qilish;

havoning tabiiy konveksiyasi intensivligini oshirish uchun qo'shimcha shaffof sirtli kombinatsiyalashgan tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich qurilmasini ishlab chiqish;

mahsulotni quritish uchun kiritilayotgan havoning harorati va tezligini kollektorning uzunligi bo'yicha o'zgarishini matematik modellashtirish;

tabiiy konveksiyali va havo kollektorli quyosh quritgichida o'rik mahsulotlarini quritish jarayonini tajribaviy tadqiqot qilish va natijalarini umumlashtirish asosida empirik tenglamalar ishlab chiqish;

tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich qurilmasining geometrik va konstruktiv parametrlarini optimallashtirish hamda texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri quyosh quritgich qurilmalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri quyosh quritgichlarida konvektiv issiqlik va massa almashinuv jarayonlarining qonuniyatlarini o'rganish hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, issiqlik va massa almashinuv, termodinamika va jismlarning erkin tushish hodisalari nazariyalari, geliotexnik qurilmalarini tajribaviy tadqiqot qilish va tajriba natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

quritish kamerasida o'rnatilgan shaffof sirt orqali qo'shimcha quyosh nurlanishi hosil bo'lishi hisobiga bug'-havo aralashmasining ichki energiyasi va havoning tabiiy konveksiyasi intensivligini oshirish hamda bir vaqtning o'zida o'rik mahsulotini quritish va saqlash imkonini beradigan qo'shimcha shaffof sirtli kombinatsiyalashgan quritgich-saqлагich qurilmasi ishlab chiqilgan;

quyosh quritgichi harorat-namlilik rejimining tajribaviy tadqiqoti natijalarini umumlashtirish asosida quritish shkafi balandligi, issiqlik akkumulyatorli quyosh havo kollektori issiqlik samaradorlik koeffitsiyenti hamda issiqlik quvvatini aniqlash imkonini beradigan yarim empirik tenglamalar olingan;

tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichning quritish shkafiga kiradigan havoning kirish va chiqish haroratlarini inobatga olgan holda mahsulotlarni bir tekis sifatli quritilishini ta'minlaydigan polkalar orasidagi optimal masofani aniqlash imkonini beradigan dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

issiqlik akkumulatorli quyosh havo kollektoriga kirayotgan havoning kirish va chiqish haroratlari hamda akkumulator sirtidagi haroratlarning vaqtga bog'liqlik chegaraviy shartlarini inobatga olgan holda havoning harorati va tezligini

kollektorning uzunligi bo'yicha o'zgarishini aniqlash imkonini beradigan matematik modeli chekli elementlar usuli bilan ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

havoning tabiiy konveksiyasi intensivligini oshirish, quyosh energiyasini akkumulatsiyalash va o'rik mahsulotini quritish imkonini beradigan tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgichi ishlab chiqilgan;

bir vaqtning o'zida o'rik mahsulotini quritish va saqlash imkonini beradigan qo'shimcha shaffof sirtli kombinatsiyalashgan quritgich-saqlagich qurilmasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, olingan natijalarga zamonaviy matematik ishlovlar berish, empirik, kuzatuv va taqqoslash usullarining bir xil sharoitda qo'llanilishi, tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichi sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichlarida energiya sarfini kamaytiruvchi omillarni, tashqi havo haroratini va quyosh radiatsiyasini hisobga olgan holda, quyosh kollektori va quritish shkafi ichidagi havo va bug'-havo aralashmasining haroratini aniqlash imkonini beradigan matematik model, havoni kollektorga kirish va chiqish teshiklarining chiziqli o'lchamini aniqlaydigan yarim empirik tenglamalar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichining issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini va issiqlik quvvatini oshirish uchun konstruktiv parametrlari optimallashtirilgan va quritish jarayonini jadallashtirish uchun qo'shimcha shaffof sirt o'rnatilgan quyosh quritgich-saqlagich qurilmasi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur qurilma o'xshash qurilmalarga nisbatan issiqlik samaradorligining yuqoriligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'riklarni quritish uchun mo'ljallangan tabiiy konveksiya va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich qurilmasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich qurilmasi Buxoro viloyatining "Ilhom yulduzi zamini" fermer xo'jaligida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022-yil 4-noyabrdagi 04/30-04/8158-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qurilma yordamida cho'l hududlari va markazlashgan elektr energiyasi ta'minotidan uzoqda joylashgan bog'dorchilik fermer xo'jaliklarida ekologik toza quritilgan mahsulot olish imkoniyati yaratilgan. Bilvosita quyosh quritgich qurilmasini qo'llash orqali mavsum davomida 1 tonna quritilgan o'rik mahsulotini tayyorlash uchun sarf etilayotgan 8280 kVt\*soat energiya tejab qolinishiga hamda fermer xo'jaligida an'anaviy yoqilg'i-energiya resurslarining tejalishi hisobiga yillik 25% iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami: 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 2 ta EHM dasturiy mahsulot uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**O‘rik mahsulotlarini quritishda quyosh energiyasidan foydalanishning zamonaviy holati tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida jahon amaliyotida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishda foydalanish usullari, mahsulotlarni quritishda issiqlik va massa almashinuv jarayonlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini bilvosita quyosh quritgichlari yordamida quritish texnologiyalari va o‘riklarni an‘anaviy usulda va quyoshda quritish texnologiyalari tahlili keltirilgan. Erishilgan muhim natijalarga qaramasdan, tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichlarini takomillashtirish, kombinatsiyalashgan quyosh quritgich-saqlagich qurilmasini ishlab chiqish, havo kollektorli bilvosita quyosh quritgich tizimida sodir bo‘ladigan konvektiv issiqlik almashinuv jarayonlarini modellashtirish hamda energiya samaradorligini oshirish masalalari yetarlicha tadqiqot qilinmagan. O‘tkazilgan ilmiy-tahlil asosida va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini quritishda energiya tejash sohasida tadqiqotlar ko‘lamining kengayish tendensiyalarini hisobga olib dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari shakllantirildi.

Dissertatsiyaning “**Tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgichini takomillashtirish va matematik modellashtirish**” deb nomlangan ikkinchi bobida takomillashtirilgan tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichining umumiy tavsifi, tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichida akkumulator massasi va havo kollektori kirish hamda chiqish qismlarining geometrik o‘lchamlarini hisoblash natijalari, issiqlik akkumulatorli yassi quyosh havo kollektorida tabiiy konveksiya jarayonini matematik modeli va nazariy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Takomillashtirilgan tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichining tajriba qurilmasi qurilgan bo‘lib, u ikki qismdan iborat: yassi quyosh kollektori va quritish shkafi (1-rasm).


Yassi quyosh kollektori - issiq quti va to‘rtburchak asosli parallelepiped shaklida tayyorlangan, uning pastki va yon tomonlari atrof-muhitga issiqlik

uzatilishidan himoyalangan. Issiqlikni zahiralash uchun kollektorning pastki qismidagi tubida issiqlik akkumulatori oʻrnatilgan. Kollektorning ikki tomonida (pastki va yuqori qismlarida) teshiklar oʻrnatilgan: atrof-muhitdan havoni kiritish uchun teshik (*A*) va isitilgan havoni kollektordan quritish shkafiga oʻtkazish uchun teshik (*B*) (1-rasm). Issiq qutining quyoshga qaragan qismi shisha bilan qoplangan. Qolgan barcha yon devorlarining ichki va tashqi qismlari, pastki (tub) qismi faner bilan qoplangan, issiqlikni tashqi muhitga yoʻqotilishidan himoyalash uchun ular orasida issiqlik izolatori (penoplast) oʻrnatilgan.



**1-rasm. Tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritish qurilmasining sxemasi.**

Quritish shkafi - toʻrtburchak asosli parallelepiped shaklida tayyorlangan va uning barcha devorlari atrof muhitga issiqlik yoʻqotilishidan himoyalangan. Shkafning shimoliy tomonida mahsulotlarni joylashtirish uchun issiqlik izolatsiyali himoya eshigi oʻrnatilgan. Shkafdagi bugʻ-havo aralashmasini atrof-muhitga chiqarish uchun shkafning tomiga teshik (*D*) oʻrnatilgan. Quritish shkafining chiziqli oʻlchamlarini hisoblash 2-rasmda tasvirlangan sxema boʻyicha amalga oshirilgan.



**2-rasm. Quritish shkafining chiziqli oʻlchamlarini hisoblash sxemasi.**

Kollektorni ufqqa nisbatan qiyalik burchagini hisobga olib, quritish shkafining vertikal balandlik uzunligini aniqlash uchun yarim empirik formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$h_{shk} = L_{shk} \cdot \sin \varphi = \frac{c_p \cdot m_c \cdot (T_c - T_a)}{p \cdot M_{shk} \cdot N_{shk}} \cdot \sin \varphi \quad (1)$$

Kollektorga kiradigan havo massasi quyidagicha aniqlanadi:

$$m' = \frac{c_p \cdot (T_c - T_a) \cdot m_c}{\sqrt{2gh_c} \cdot (h_c + h_{shk.})} \cdot \sin \varphi \quad (2)$$

Kollektorning issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini aniqlashning yarim empirik formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\eta_{kol} = \frac{c_p^{havo} \cdot m' \cdot (T_c - T_a) + c_p^{akkum} \cdot m_{akkum} \cdot (T_{i+1} - T_i)}{R_o \cdot F_a \cdot \kappa_1 \cdot \kappa_2} \quad (3)$$

Istalgan soatdagi vaqt intervalida va issiqlik yo‘qotishlarini hisobga olmagan holda yassi quyosh kollektorining o‘rtacha issiqlik quvvatini quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$Q_{kol.} = \frac{A_{kol.}}{\tau_o} = \frac{c_p^{havo} \cdot m' \cdot (T_c - T_a) + c_p^{akkum} \cdot m_{akkum} \cdot (T_{i+1} - T_i)}{\tau_o} \quad (4)$$

Quritish shkafining issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini aniqlashning yarim empirik formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$\eta_{shk.} = \frac{(T_d - T_a)}{(T_c - T_a)} \quad (5)$$

Vaqt intervalida va issiqlik yo‘qotishlarini hisobga olmagan holda quritish shkafining o‘rtacha soatlik issiqlik quvvatini aniqlashning empirik formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$Q_{shk} = \frac{c_p^{havo} \cdot m' \cdot (T_d - T_a)}{\tau_o} \quad (6)$$

Issiqlik akkumulatori (shag‘al tosh) massasini quyidagi yarim empirik formula yordamida aniqlanadi:

$$m = \frac{Q_s}{c_a \cdot \Delta T} = \frac{Q_t \cdot t_s \cdot F_a}{c_a \cdot \Delta T} \quad (7)$$


G. Kirxgofning gazlarning issiqlik nurlanishi konsepsiyasi asosida qurilmaning teshiklari o‘lchamlari aniqlandi. Unga ko‘ra kollektor elementlarining dastlabki chiziqli o‘lchamlarini  $M=0,5 m$ ,  $N=0,2 m$ ,  $L=1 m$  ekanligini va  $(100 \div 256) \cdot F_T \leq F_r$  tengsizlikdan foydalanib kollektorni o‘rab turgan sirt yuzasining qiymati  $F_r = 1,6 m^2$  ekanligi aniqlandi. Havo kirish teshigining chiziqli o‘lchami quyidagicha:

$$d_T \leq \sqrt{\frac{F_r}{100}} = \frac{\sqrt{F_r}}{10} \quad \text{ba} \quad d_T \leq \sqrt{\frac{F_r}{256}} = \frac{\sqrt{F_r}}{16} \quad (8)$$

Dastlabki kattaliklar asosida teshiklarning chiziqli o‘lchamlari aniqlandi,  $d_T = 0,079 m$ . Bunday chiziqli o‘lchamga asosan tanlangan havo teshigining sirt yuzasi  $F_T = (8 sm \times 8 sm) = 64sm^2$  ga teng. Agar kollektorda ikkita havo

teshigi o'rnatilgan bo'lsa, u holda har birining chiziqli o'lchamlari  $d \approx 4 \text{ sm}$  va har bir teshikning sirt yuzasi  $16 \text{ sm}^2$  qabul qilindi.

Havoning tabiiy konveksiya jarayonini matematik modellashtirish uchun kollektordan vertikal tekislik bo'yicha vertikal qirqim kesamiz va ikki o'lchovli sohani ko'rib chiqamiz (3-rasm).



3-rasm. Kollektorning koordinatalar tizimidagi sxemasi.


Bunday masalani ikki parallel sterjen orasidagi havo konveksiyasini tadqiq qilish masalasiga olib kelamiz. Konveksiya vaqtida havoning harakatini hisobga olish uchun har doim issiqlik ta'sirida havo zichligining o'zgarishini inobatga olish kerak bo'ladi:

$$\rho = \rho_o \cdot [1 - \beta \cdot (T - T_o)] \quad (9)$$

Bussinesk yaqinlashuvida massa, impuls, energiyaning saqlanish qonunlaridan foydalangan holda havo tabiiy konveksiyasining stasionar bo'lmagan oqimi uchun asosiy tenglamalarni quyidagicha yozish mumkin:


$$\begin{cases} \frac{\partial(u)}{\partial x} + \frac{\partial(v)}{\partial y} = 0 \\ \frac{\partial u}{\partial t} + u \frac{\partial u}{\partial x} + v \frac{\partial u}{\partial y} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial P}{\partial x} + \mu \frac{\partial^2 u}{\partial y^2} - \beta g (T - T_o) \cdot \sin \varphi \\ \frac{\partial T}{\partial t} + u \frac{\partial T}{\partial x} + v \frac{\partial T}{\partial y} = \alpha \frac{\partial^2 T}{\partial y^2} \end{cases} \quad (10)$$

Differensial tenglamani (10) yechish uchun har bir tugun nuqtasidagi (chekli ayirmalarda) ma'lumotlar kerak bo'ladi. Buning uchun eng kichik kvadratlar usuli yordamida regressiya tenglamasidan foydalanildi. Tajriba ma'lumotlardan foydalanib, ko'phad shaklida regressiya tenglamalari tuzildi va haroratlarni vaqt bo'yicha o'zgarish grafiklari 4, 5 va 6-rasmlarda keltirilgan.




4-rasm. Shisha ostidagi havo haroratining o'zgarish grafigi.

$$T_1(\tau) = -0.59\tau^2 + 18.786\tau - 89.36$$



**5-rasm. Issiqlik akkumulatori sirtidagi haroratning o'zgarish grafigi.**


$$T_2(\tau) = -0.826\tau^2 + 24.76\tau - 114.137$$



**6-rasm. Kollektorga kirayotgan havo haroratining o'zgarish grafigi.**

$$T_o(\tau) = -0.221\tau^2 + 6.349\tau + 7.281$$

Kollektorning chiqish teshigi joyidagi havo haroratini kunning vaqtga bog'liqlik grafigiga kiritish orqali tajriba natijalarini nazariy ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi 7-rasmida keltirildi.




**7-rasm. Kollektorning chiqish teshigidan chiqayotgan havoning tajribaviy va nazariy qiymatlar grafigi.**

Taklif etilgan matematik modelning tajribaviy va nazariy ma'lumotlari o'rtasida o'rtacha approksimatsiya xatoligi 7,7% ni tashkil etadi (7-rasm).

Dissertatsiyaning **“Tabiiy konveksiyali va havo kollektorli quyosh quritgichlarida quritish jarayonlarini tajribaviy tadqiq etish”** deb nomlangan uchinchi bobida ho'l o'rik mevasining biologik xususiyati, tabiiy konveksiyali bevosita quyosh quritgichini takomillashtirish va tajribaviy tadqiqot natijalari keltirilgan.


O'rikni quritish jarayonini tajribaviy tadqiqot qilish uchun massasi 100 gr bo'lgan o'rikning oziqaviy qiymati va kimyoviy tarkibi o'rganildi (8-rasm).



**8-rasm. Ho'l o'rik mevasining tarkibiy tuzilish sxemasi.**

Tadqiqot ishida tajriba tadqiqotlarini o'tkazish uchun "Navoiy" navli o'rikdan 32,209 kg ajratib olindi, ularning o'rtacha kattaligi 36x36x31 mm o'rtacha vazni 24-27 gr, oval shaklda, po'stlog'i biroz yaltiroq, to'q sariq rangda, ingichka malina-qizil ranglisi tanlandi. O'rikning danagi nisbatan kichik, o'rtacha kattaligi 27x18x11 mm, og'irligi 3,13 gr.


O'rikni quritish bo'yicha dastlabki tajriba tadqiqotlari Buxoro davlat universiteti, "Fizika" kafedrasining ilmiy laboratoriyasida qurilgan tabiiy konveksiyali bevosita quyosh quritgichida (TKBQQ) olib borildi (9-rasm). Qurilma tubini foydali ishlatish koeffitsiyenti 0,36, qurilmaning quyosh radiatsiyasi to'g'ri tushadigan yon tomonlarining ufqqa nisbatan qiyalik burchaklari 38° va 52° (mintaqaning geografik kengligini hisobga olgan holda) qabul qilindi. Qurilmaning umumiy uzunligi 2,5 m, eni 1,55 m, I-kamera balandligining uzunligi 0,75 m va II-kamerasi balandligining uzunligi 0,4 m.



**9-rasm. TKBQQ ning umumiy ko'rinishi.**


TKBQQ qurilmasida o'rik mahsulotlarini quritish bo'yicha tajriba tadqiqotlari 2020-yilning 9-iyulidan 16-iyuligacha o'tkazildi. Barcha o'lchashlar har kuni soat 9<sup>00</sup> dan 18<sup>00</sup> gacha olib borildi. Quritish jarayonining birinchi bosqichi (A) quritish

tezligi miqdorining o'zgarishiga ko'ra shartli ravishda ikki davrga bo'lingan (10-rasm): o'sish (I) va pasayish (II). Bunday holat quritilayotgan o'rik mahsulotining namlik miqdori 50% bo'lgungacha davom etadi. Ushbu tajribada bunday hodisa ikki sutka 22-23 soatli quyosh radiatsiyasi nurlanishida sodir bo'ladi. Quritishning III davri 3.4-rasmdagi grafikda belgilangan "0" nuqtadan boshlanadi.



A, B va C- o'rikning nam, gigroskopik va muvozanat holatlari bosqichlari; I, II, III –quritish tezligi davrlari; 1 va 2-quritilayotgan o'rikning sirt yuzasida harorat va namlikning o'zgarishi; 3 va 4-quritish agenti harorat va namligining o'zgarishi; 5-quritish tezligi.

**10-rasm. TKBQQda o'rikni quritish jarayonining bosqichlari va davrlari.**



A, B va C-qaysaning nam, gigroskopik va muvozanat holatining bosqichlari; I, II, III – quritish tezligi davrlari; 1 va 2-quritilayotgan qaysaning sirt yuzasida harorat va namlikda o'zgarishi; 3 va 4-quritish agentining harorati va namligining o'zgarishi; 5-quritish tezligi; 6-atrof-muhit harorati.

**11-rasm. TKBQQ da qaysani quritish jarayonining bosqichlari va davrlari.**


Qaysani quritish jarayonining birinchi bosqichini (A) tezlik miqdorining o'zgarishiga ko'ra shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin (11-rasm): sekin pasayish (I) va pasayish (II).

12-rasmda ko'rsatilgan quritilgan o'rik mahsulotlarining natijalaridan ko'rish mumkin: a) A-bosqichning oxirida, o'rikning rangi ochiq jigarrang; b) V-bosqichning oxirida o'rikning rangi to'q jigarrang; s) quritish jarayoni boshlanguncha quritilayotgan o'rik mahsulotlarining rangi sariq-ochiq jigarrang.



12-rasm. Quritilgan o'rik mahsulotining quritish jarayonidagi namunalari.

Quyosh quritgichlarining ish rejimini optimal tashkil etish, ularning energetik, texnik-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash borasida modernizatsiya qilingan tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritish qurilmasi (Md.TKBQQ) yaratildi. Qurilmaning umumiy ko'rinishi va konstruksion modelining tarkibiy elementlari 13-rasmda keltirilgan.




13-rasm. Tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichi.

Mahsulotlarni quritish maqsadida isitish shkafida 6-8 ta lotok va to'rtli patnislar o'rnatilgan. Patnislar orasidagi masofa 15-20 sm. Patnislarning to'rtli nay qamishdan tayyorlangan bo'lib, patnisning sirt yuzasi isitish shkafining eni va bo'yining o'lchamlariga qarab tanlab olingan, ushbu qurilma uchun har bir patnisning sirt yuzasi 0,15 m<sup>2</sup>. Tajriba o'lchashlari sakkiz sutka, quyosh nurlanishi davrida olib borildi.


Danaklari bo'lgan o'rik patnislarning 1 m<sup>2</sup> maydoniga 10-15 kg miqdorida, danaksiz bo'lgan o'rik (qaysa) patnislarni 1 m<sup>2</sup> maydoniga 7-14 kg miqdorida joylashtiriladi.

14-rasmda bug'-havo aralashmasining quritish shkafidan chiqishdagi kunlik o'rtacha issiqlik energiyasi va kollektordan quritish shkafiga kirayotgan isitilgan havoning kunlik o'rtacha issiqlik energiyalarining sutkalik o'zgarishi ko'rsatilgan. Bu ikki issiqlik energiyalarining grafik tasvirlari o'rtasida hosil bo'lgan yuza (issiqlik energiyalar ayirmasi) quritilgan o'rikka uzatilgan issiqlik energiyasi miqdorini bildiradi.



**14-rasm. Kollektordan quritish shkafiga kiruvchi isitilgan havo va shkafdan chiqib ketuvchi bug'-havo aralashmasi energiyalarining o'zgarish grafigi.**


Md.TKBQ quritgichida ho'1 o'rik sirtidagi kunlik o'rtacha harorat va uning namlik miqdori 1 va 2 egriliklar shaklida ko'rsatilgan (15-rasm). Xuddi shunday ho'1 o'rikni quritishda bug'-havo aralashmasining kunlik o'rtacha harorati va namlik miqdori 3 va 4 egriliklar shaklida, quritish tezligi 5 egri chiziq shaklida ko'rsatilgan (15-rasm).



A, B va C- o'rikning nam, gigroskopik va muvozanat holatining bosqichlari; I, II, III –quritish tezligining davrlari; 1 va 2-quritilayotgan o'rik sirti yuzasidagi harorat va namlik miqdori; 3 va 4-quritish agentining harorati va namlik miqdori; 5-quritish tezligi.

**15-rasm. Md.TKBQ qurilmasida o'rikni quritish jarayoni davrlari.**

Ho‘l qaysa sirtidagi kunlik o‘rtacha harorat va uning namlik miqdori 1 va 2 egriliklar shaklida 16-rasmda tasvirlangan. Xuddi shunday ho‘l qaysani quritishda quritish agentining kunlik o‘rtacha harorati va namlik miqdori 3 va 4 egriliklar shaklida, quritish tezligi 5 egri chiziq shaklida ko‘rsatilgan (16-rasm).



A, B va C- qaysaning nam, gigroskopik va muvozanat holatining bosqichlari; I, II, III – quritish tezligining davrlari; 1 va 2-quritilayotgan qaysa sirti yuzasidagi harorat va namlik miqdori; 3 va 4-quritish agentining harorati va namlik miqdori; 5-quritish tezligi.  
**16-rasm. Md.TKBQ qurilmasida qaysani quritish jarayoni davrlari**

Ho‘l meva mahsulotlarini TKBQQ qurilmasida muvozanat holatigacha quritish jarayoni o‘rik uchun 8 sutka va qaysa uchun 5 sutka davom etdi. Md.TKBQ qurilmasida bu jarayonning davomiyligi o‘rik va qaysa uchun 5 sutkani tashkil etdi.

TKBQQda quritish mahsulotlari sirtidagi harorat 50°C ga ko‘tarilgan bo‘lsa, Md.TKBQ qurilmasida bu harorat 41°C bo‘lgan. TKBQQ da mahsulot sirtidagi haroratida TKTQ qurilmadagi haroratga nisbatan 9°C ga ortishi natijasida o‘rik mahsuloti po‘stlog‘i va tashqi qatlamidagi biologik tolalar sifatini buzilishiga olib keldi.

Tabiiy konveksiyali va quyosh havo kollektorli bilvosita quyosh quritgichida va ochiq havoda o‘rik mahsulotlari quritilganda zaharli elementlar miqdori mos ravishda 0,13 mg/kg va 0,22 mg/kg, ion-nitratlar miqdori 8,5 mg/kg va 9,3 mg/kg ni tashkil etgan, natijada o‘rik mahsulotining sifati o‘rtacha 10...12 % ga yaxshilanishiga erishildi.


Dissertatsiyaning **“Tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichini takomillashtirish va texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichini takomillashtirish bo‘yicha tajriba tadqiqotlari natijalari, tabiiy konveksiyali bilvosita quyosh quritgichining unumdorligi va issiqlik samaradorligini baholash natijalari va Md.TKBQ ning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari qiymatlari keltirilgan.

Md.TKBQQ da o‘tkazilgan tajriba tadqiqotlari natijalari asosida qurilmaning issiqlik samaradorlik koeffitsiyentini oshirish maqsadida quritish shkafiga qo‘shimcha shaffof sirt o‘rnatildi. Qo‘shimcha shaffof sirt Md.TKBQQ quritish shkafining uchta yon tomonining yuqori qismida o‘rnatildi (17-rasm). Qo‘shimcha

shaffof sirtning chiziqli o'lchamlari 7 sm dan (sirt balandligining uzunligi) qilib tanlandi. Ushbu qurilmaning qolgan barcha konstruksion modeli elementlari Md.TKBQQ ning barcha elementlariga aynan o'xshash va o'lchamlari jihatdan bir xil.




Qo'shimcha shaffof sirt



17-rasm. Qo'shimcha shaffof sirtli Md.TKBQ qurilmasi.

Qo'shimcha shaffof sirdan quyosh nurlanishi hisobidan kirgan to'liq infraqizil nurlar bug'-havo aralashmasining ichki energiyasini yanada oshirib, ularning isitish shkafidan chiqib ketishini jadallashtiradi. Ikkita quritish qurilmalarining belgilangan nuqtalarida o'lchangan haroratlarni quritish vaqtiga bog'liqlik egri chiziqlari 18-rasmda tasvirlangan.




1-kollektorning kirish teshigidagi harorati; 2-kollektorning chiqish teshigidagi harorati; 3-shkafning chiqish teshigidagi harorat; 4-quritish shkafining o'rtasidagi harorat

18-rasm. Mahsulot yuklanmagan quyosh quritgichlarida haroratni vaqtga bog'liqligi.

Mf.TKBQ va Md.TKBQ qurilmalarda quritilayotgan mahsulot bo'yicha o'tkazilgan tajriba tadqiqotlari natijalari 19-rasmda tasvirlangan. 19-rasmda tasvirlangan haroratlarning vaqtga bog'liqlik grafiklaridan kelib chiqib

Mf.TKBQQ ning havo chiqish teshigida bug‘-havo aralashmasining harorati Md.TKBQ qurilmadagi haroratdan 3-4°C yuqori bo‘lsa, shkaf o‘rta qismida 6-7°C ga ortgani kuzatildi. Haroratning bunday o‘zgarishi bug‘-havo aralashmasiga IQ nurlari ta’siri natijasida uning ichki energiyasining ortganligidan dalolat beradi. Binobarin, bug‘-havo aralashmasi ichki energiyasining ortishi quritish jarayonini jadallashtiradi va quritish tezligini oshiradi. Tajriba natijalariga ko‘ra, Mf.TKBQ qurilmasida mahsulotning namligi 51,6%, Md.TKBQ qurilmasida esa 67,8% ni tashkil etgan.



1-kollektorning kirish teshigidagi harorat; 2- kollektorning chiqish teshigidagi harorat; 3-shkafning chiqish teshigidagi harorat; 4-quritish shkafining o‘rtasidagi harorat.

**19-rasm. Mahsulot yuklangan quyosh quritgichlarida haroratning vaqtga bog‘liqlik grafiqi.**

Mf.TKBQ va Md.TKBQ (prototip) qurilmalarni taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

### Hisoblash natijalari

№	Nomlanishi	O‘lchov birligi	Prototip	Qurilma
1.	Kollektorning shaffof yuzasi maydoni	m <sup>2</sup>	0,56	0,5
2.	Yig‘indi quyosh radiatsiyasi	Vt/m <sup>2</sup> .	525,29	539,5
3.	Mahsulotning dastlabki namligi	%	86	85
4.	Quritish vaqti	kun	8	6
5.	Quyosh kollektorining samaradorligi	%	16,47	18,6
6.	Quyosh quritgichining umumiy issiqlik samaradorligi	%	-	5,81
7.	Mahsulotdan chiqarib yuborilgan namlik	%	82,22	O‘rik-62 Qaysa-66
8.	Oxirgi namlik	%	13,74	O‘rik-23 Qaysa-19

Mf.TKBQ qurilmasi shkafining o‘rta qismidagi bug‘-havo aralashmasining harorati chiqish teshigidagi bug‘-havo aralashmasining haroratidan 8°C ga ortgan, natijada material tarkibidan suvning bug‘lanish tezligi Md.TKBQ qurilmadagiga nisbatan 1,4-martaga yuqori bo‘ldi.

Quyosh quritgichlarining tannarxi 2022-yil 18-apreldan 22-aprelgacha O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasidagi narxlar bo‘yicha, 1 AQSH dollari 11220,06 so‘m da baholangan (2-jadval).

2-jadval

### Md.TKBQ qurilmasining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

№	Nomlanishi	Prototip	MD.TKBQ Qurilma
1.	Akkumulator sirtiga tushadigan quyosh radiatsiyasi. $Vt/m^2$	460,1	499,1
2.	Elektr energiya, kVt·soat	0,43	0,923
3.	Shartli yoqilg‘i, kg sh.yo	0,162	0,348
4.	Tabiiy gaz, $m^3$	0,14	0,3
5.	Tejalgan gazning narxi, sum/sut.	53,2	114
6.	Umumiy tejab qolingani mablag‘, sum/sut.	1207	2592
7.	O‘z-o‘zini qoplash muddati,	2,2 yil	1 yil

Quritgich kollektorida kun davomida 3313,23 kJ miqdorda issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi, natijada 0,923 kVt soat elektr energiyasi yoki 0,34 kg.sh.yo. tejab qolinadi. Massasi 50 kg va boshlang‘ich namligi 90% bo‘lgan o‘rik mahsulotining oxirgi namligini 20% gacha kamaytirish uchun ochiq havoda quritish 80 soatni, bilvosita quyosh quritgichida 60 soatni tashkil etdi, natijada qurilmaning mahsulot bo‘yicha unumdorligini 25% ga oshirish va o‘rikni quritish narxini 1,21...1,33-martagacha kamaytirish imkoniyati yaratildi.

### XULOSA

Dissertatsiya ishida qo‘yilgan vazifalarni hal etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taklif qilindi:

1. Tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgichlarida issiqlik va massa almashinuv jarayonlari, qurilmaning texnik-iqtisodiy samaradorligini oshirish usullari va texnologiyalarini tahlil qilish asosida takomillashgan qo‘shimcha shaffof sirtli quyosh quritgich-saqlagich qurilmasi ishlab chiqildi.

2. Tabiiy konveksiyali va havo kollektorli bilvosita quyosh quritgichning konstruktiv va optimal geometrik o‘lchamlarini, quritish shkafiga kirayotgan va chiqayotgan havo haroratlarini inobatga olgan holda quritish shkafidagi polkalar orasidagi optimal masofani aniqlash imkonini beradigan dasturiy ta‘minot ishlab chikilgan.

3. Issiqlik akkumulatorli quyosh havo kollektori va quritish shkafi balandligi, issiqlik samaradorlik koeffitsenti hamda issiqlik quvvatini aniqlash imkonini beradigan yarim empirik tenglamalar olingan, havoning harorati va tezligini kollektorning uzunligi bo‘yicha o‘zgarishini aniqlash imkonini beradigan matematik model ishlab chiqilgan.

4. Tabiiy konveksiyali va quyosh havo kollektorli bilvosita quyosh quritgichida va ochiq havoda o'rik mahsulotlari quritilganda zaharli elementlar miqdori mos ravishda 0,13 mg/kg va 0,22 mg/kg, ion-nitratlar miqdori 8,5 mg/kg va 9,3 mg/kg ni tashkil etgan, natijada o'rik mahsulotining sifati o'rtacha 10...12 % ga yaxshilanishiga erishilgan.

5. Massasi 50 kg va boshlang'ich namligi 90% bo'lgan o'rik mahsulotini oxirgi namligini 20% gacha kamaytirish uchun ochiq havoda quritish 80 soatni, bilvosita quyosh quritgichida 60 soatni tashkil etdi, natijada qurilmaning mahsulot bo'yicha unumdorligini 25% ga oshirish va o'rikni quritish narxini 1,21...1,33-martagacha kamaytirish imkoniyati yaratildi.

6. Tabiiy konveksiyali va havo kollektorli quyosh quritgich qurilmasini fermer xo'jaligida joriy etish natijasida foydali hajmi 0,36 m<sup>3</sup> bo'lgan bilvosita quyosh quritgichi yordamida mavsum davomida 276,9 kVt energiya yoki 104,4 kg shartli yoqilg'i tejab qolingani, natijada fermer xo'jaligida an'anaviy yoqilg'i-energiya resurslarining tejalishi hisobiga yil davomida 25% samaradorlikka erishilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.09.2020.Т.111.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**КОДИРОВ ЖОБИР РУЗИМАМатович**

**КОСВЕННАЯ СОЛНЕЧНАЯ СУШИЛЬНАЯ УСТАНОВКА С  
ЕСТЕСТВЕННОЙ КОНВЕКЦИЕЙ И ВОЗДУШНЫМ КОЛЛЕКТОРОМ  
ДЛЯ СУШКИ АБРИКОСОВ**

**05.05.06 – Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Карши – 2023**

**Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.1.PhD/T1154**

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации написан на трех языках (узбекский, русский, английский) размещен на веб-странице Научного совета ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:** **Мирзаев Шавкат Мустакимович**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Искандаров Зафар Самандарович**  
доктор технических наук, профессор

**Файзиев Тўлқин Амирович**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:** **Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.T.111.03 при Каршинском инженерно-экономическом институте. (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел: (99875) 224-02-89, факс: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz).)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрировано № \_\_\_\_). (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. Тел: (99875) 224-02-89, факс: (99875) 224-13-95, e-mail: [kiei\\_info@edu.uz](mailto:kiei_info@edu.uz).)

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от «\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года).

**Г.Н. Узатов**

Председатель научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Х.А. Давлонов**

Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент

**Б. Уришев**

Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Использование возобновляемых источников энергии в процессах сушки сельскохозяйственной продукции, экономия энергоресурсов путем применения солнечных сушильных устройств, обеспечение населения качественной сушеной продукцией обозначены в качестве важных направлений во всем мире. Согласно данным о динамике сушки сельскохозяйственной продукции, для получения одного килограмма сухого продукта следует удалить от 4 до 11 килограммов влаги, при этом удельный расход энергии составляет от 2,7 до 7,4 киловатт-час. Это приводит к тому, что энергоёмкость сушильных процессов в сельскохозяйственном секторе составляет около 20 процентов его общего топливного баланса<sup>1</sup>. По этой причине в мире приобретает важное значение экономия энергии и ресурсов путем использования сушильных установок сельскохозяйственной продукции на основе возобновляемых источников энергии и внедрения солнечных сушилок с высокой энергоэффективностью.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование конструкций, повышение производительности и оптимизацию конструктивных параметров солнечных сушилок косвенного действия, работающих на основе возобновляемых источников энергии. В этом направлении, в частности, приоритетными являются исследования по определению оптимальных конструктивных параметров косвенных солнечных сушилок, моделированию процессов конвективного теплообмена в устройстве, повышению энергоэффективности солнечной сушилки. Поэтому особое внимание уделяется совершенствованию косвенных солнечных сушилок с естественной конвекцией и оптимизации их основных теплотехнических параметров.

В нашей республике в целях обеспечения населения надёжной, качественной и дешевой сушеной сельскохозяйственной продукцией осуществляется разработка новых современных энергоэффективных солнечных сушилок, обеспечивающих снижение энергопотребления и достигнуты определенные результаты. В Стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019-2030 годов, в частности, определены важные задачи по направлению «Диверсификация потребления энергоресурсов и развитие использования возобновляемых источников энергии»<sup>2</sup>. В процессе реализации этих задач усовершенствование и внедрение косвенных солнечных сушилок с естественной конвекцией является одним из актуальных научно-технических вопросов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики

---

<sup>1</sup> <https://uza.uz/ru/posts/sushka-selskokhozyaystvennykh-produktov-s-ispolzovaniem-soln-10-11-2015>

<sup>2</sup> Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4477 от 4 октября 2019 года «Об утверждении стратегии по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019- 2030 годов».

Узбекистан от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» № УП-60, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4779 от 10 июля 2020 года «О дополнительных мерах по сокращению зависимости отраслей экономики от топливно-энергетической продукции путем повышения энергоэффективности экономики и задействования имеющихся ресурсов»<sup>3</sup>, № ПП-4422 от 22 августа 2019 года «Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии»<sup>4</sup>, а также других нормативно-правовых документов, принятых в данной области.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики IV. «Развитие методов использования возобновляемых источников энергии, создание технологий и устройств на основе нанотехнологий, фотоники и других передовых технологий».

**Степень изученности проблемы.** Во многих странах мира ведутся научно-исследовательские работы по совершенствованию естественно-конвекционных косвенных солнечных сушильных устройств и оптимизации габаритов и теплотехнических параметров их конструктивных элементов, на основе этого осуществляется разработка солнечных сушильных устройств с высокой энергоэффективностью. В этой области проводили научные исследования такие зарубежные ученые, как Н.М.Маунду, К.С.Кипту, Б.К. Руденя, О. Аджике, С.П. Фадке, П.В. Уокер, А.С. Лупашко, Г. К. Дикусаров, А.Н.Остриков, А.Л. Кузнецов, А. Ашуров.

В нашей республике исследования по созданию солнечных сушильных установок, работающих на солнечной энергии, проводились такими учеными, как Г.Я. Умаров, Р.А. Захидов, Р.Р. Авезов, Б.Э. Хайриддинов, З.С. Искандеров, З.Т. Тоиров, И.И. Рахматов, Х. Нуриддинов и др.

